



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
TILSHUNOSLIKDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING
LISONIY TADQIQI

L.Azimova

Xalqaro innovatsion universitet

Tarix va filologiya fakulteti Filologiya va tillarni

o'qitish yo'nalaishi I kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Sh. Islomova

Annatsiya. Maqolada paremiologik birliklari — maqol va matallarning lingvistik tadqiqi haqida so'z boradi. Unda paremiologik birliklar nafaqat paremiologiya doirasida, balki areal lingvistika, pragmalingvistika, lingvofolklorshunoslik, lingvopoetika va lingvokulturologiya kabi sohalarida ham o'rganilgani, hozirgi kunda esa fanlararo integratsiya asosida yangi lingvistik yondashuvlar orqali tadqiq etilayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *paremiologik birlik, maqol, matal, kolorit, milliy.*

Annotation. *The article discusses the linguistic study of paremiological units — proverbs and sayings. It notes that paremiological units are investigated not only within paremiology but also in fields such as areal linguistics, pragmalinguistics, folkloristics (lingvo-folkloristics), lingvo-poetics, and linguistic culturology, and emphasizes that current research proceeds through interdisciplinary integration and new linguistic approaches.*

Keywords. *paremiological unit, proverb, saying, color, national.*

Dunyodagi har bir til o'ziga xos milliy koloritga ega bo'lib, bu kolorit ushbu tilning madaniy shakllangan lingvistik birliklarida o'z aks topadi. Ushbu birliklar tarkibidagi paremiologik birliklar deb atalayotgan tuzilmalar ham mavjud bo'lib, ular milliy millatning olam manzarasini aks ettiradi, balki milliy til ongining ajralmas va uzviy butunliklaridan biri hisoblanadi.

Maqol va matallar lingvomadaniy birliklar sifatida lingvomadaniyatshunoslikning muhim o'rganish obyektlari qatoriga kiradi. Sh. Usmonovning baholashicha, maqol va matallarning paremiologik fondi lingvomadaniyatshunoslikda o'rganish endi boshlanganini qayd etadi²⁵. Darhaqiqat, bunday erkin birliklar tilshunoslik uchun ham ahamiyatli o'rganish manbai sanaladi.

Tilshunoslikda lingvomadaniy unsurlar, xususan, paremiologik birliklar atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarni ularning lingvistik xususiyatiga ko'ra tasnif qilish masalasiga XX asr ikkinchi yarmidan boshlab e'tibor qaratildi. 1984-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da 8449 ta birlik jamlangan bo'lib ular orasida N.Ostroumov to'plamidan keltirilgan 575 ta parema

²⁵ Усмонова Ш. "Лингвокультурология" фанидан маърузалар курси. – Тошкент, 2014. – Б. 27.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mavjud. Shuningdek, lugʻatdan 289 ta tarixiy paremlar, M.Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridan 197 ta, Muhammad Sharif Gulhaniyning “Zarbulmasal”idan 119 ta hamda 2 ta individual-mualliflari joy olgan. $8449-1182=7267$ ta paremiologik birlik esa oʻzbek xalq maqollari, matallaridan, turli xil ilmiy manbalardan jamlangan. Biroq lugʻatda paremiologik birliklar alohida ajratib berilmagan.

Jumladan, R. Jumaniyozov, E. Siddiqov, B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, M. Madrahimova, B. Rahmonov singari olimlar paremlarni toʻplab, ularni mavzusiga va ifoda etgan mazmuniga koʻra tasnif etganlar. Shuningdek, oʻzbek tilshunosligida paremiologik birliklarning til va nutq hodisasi sifatidagi oʻrni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar ham olib borilgan. Xususan, maqollarning sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonov tomonidan, maqol va matallarning leksik tarkibi hamda ularning dialektal jihatlarini esa M.Sadriddinova tomonidan tadqiq etilgan.²⁶

Oʻzbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari²⁷ yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan B. Joʻrayeva paremiologik birliklar orasidagi farqlanish va ularning oʻzaro munosabati, farqli jihatlarini tahlil qilib, maqol va matallarni maʼno tomondan chegaralash lozimligini taʼkidlaydi. Olima oʻzbek xalq maqollari shakllanishining intralingvistik asoslarini 6 guruhga, ekstralingvistik asosda shakllangan maqollarni esa 54 ta guruhga boʻlib tekshirgan²⁸.

Paremiologik birliklarini izohlash va ularning farqlarini ajratib tasniflashda S. Roʻzimboyev va H. Roʻzmetovlar xizmatlari ham eʼtiborga loyiq. Olimlar paremiologik birliklarini tasniflashda oltita eʼtiborli jihatni koʻzda tutgan²⁹. Ularning fikricha, maqol va matallar grammatik asoslar miqdoriga koʻra teng boʻlishi mumkin, lekin matallar asosida tugal boʻlmagan ifodaning yotishi, maqollar singari qofiyaga, ohangdoshlikka ega emasligi ular orasidagi differensial belgilarni yuzaga chiqaradi. Matallarda fikr (xuddi maqollar singari) obrazli, koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi mumkin, lekin ularda fikr va muhokamaning tugal natijasini koʻrmaymiz³⁰.

T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “Oʻzbek xalq maqollari”³¹ toʻplamida paremlarni 70 ta turli xil mavzuga ajratadi. Bu birliklar tarkibida uchragan ayrim sheva va eskirgan soʻzlar ajratilib, kichik izohli lugʻati berilgan.

²⁶ Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УЗССР, 1964; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С.

²⁷ Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.

²⁸ Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.

²⁹ Рўзимбоев С., Рўзметов Х. Фолклор атамаларининг қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 27.

³⁰ Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 18.

³¹ Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 496-508.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tilshunoslikda paremiologik birliklari nafaqat paremiologiya doirasida, balki areal lingvistika, pragmalingvistika, lingvofolklorshunoslik, lingvopoetika va lingvokulturologiya kabi sohalarda ham nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan; ushbu tadqiqotlar yangi lingvistik asoslar asosida davom etmoqda. Bu jarayonda fanlararo integratsiya muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, turg'un iboralarni har jihatdan tadqiq etish ham muqobil va zarur yondashuv hisoblanadi, chunki paremlar milliy tilning poydevorini tashkil etadi va ular xalqning mentaliteti, turmush tarzi, tarixi, milliy tafakkuri va madaniyatini aks ettiradi hamda tilning jonliligini ta'minlovchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964.
2. Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977.
3. Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 18.
4. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.
5. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.
6. Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоков Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 496-508.
7. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фолклор атамаларининг қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 27.
8. Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С.
9. Усмонова Ш. “Лингвокультурология” фанидан маърузалар курси. – Тошкент, 2014. – Б. 27.

